

**INTERFAOL METOD TUSHUNCHASI VA UNING
NAZARIY ASOSLARI**

Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi¹

¹ *Musiqiy ta'lim va san'at mustaxassisligi*

1-kurs magistranti

ORCID: 0009-0004-9429-144X

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.05.2025

Revised: 19.05.2025

Accepted: 20.05.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:

Metod, interfaol, pedagogika, nazariya, fikr, usullar, mutafakkir, ta'lim samaradorligi, innovatsion pedagogika.

Maqolada interfaol metod tushunchasi haqida, uning pedagogik hamda nazariy asoslari haqida batafsil tushuntirilib berilgan. Qolaversa, bir qator pedagog olimlar va muatafkirlarning fikrlari va mavzu yuzasidan qarashlari ham keng yoritilib berilgan. Shu bilan bir qatorda- interfaol metodlarning foydaliligi va samaradorligi haqida ham aylib o'tilgan. Maqolada interfaol metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri, ularning asosiy tamoyillari va qo'llanilish usullari ilmiy-nazariy asosda yoritildi.

KIRISH. Kundan – kunga jadal rivojlanib borayotgan zamonda, ta'lim jarayonida o'quvchilarni dars mashg'ulotlarida faol ishtirok etishga chorlash, ularning mustaqil fikrlashiga, muloqot qilishiga va ijodiy yondashishi uchun qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Biz oldinbai an'anaviy ta'lim metodikasidan foydalanib, o'quvchilar uchun tayyor ma'lumotlar berib, dars samaradorligi uchun faqat o'qituvchi sababchi bo'lgan dars metodlaridan foydalanganmiz. Bora-bora an'anaviy ta'lim metodikasidan ko'ra, tez va shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy dars metodlariga o'tdik. An'anaviy ta'lim usullari o'quvchilarning faqat tayyor bilimlarni qabul qilishiga yo'naltirilgan hisoblangs, interfaol ta'lim metodlari esa ularni bilim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shu sababli, interfaol ta'lim bugungi pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Interfaol ta'lim – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqotga asoslangan, ta'lim jarayonida barcha

ishtirokchilarning faol qatnashishini ta'minlaydigan metodlar majmuasidir. Bu metod o'qituvchi hamda kerak bo`lsa, barcha talabalarni jamlab, birlashtirib, darsni yanada qizqarli va sifatlari o'tishiga sababchi bo'ladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning faqatgina bilim olishi bilan cheklanmay, balki uni amalda qo'llash, tahlil qilish hamda mustaqil ravishda yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga, kengaytirishga qaratilgan. Mazkur maqolada interfaol ta'lim tushunchasi, uning nazariy va pedagogik asoslari, hamda ushbu metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol yondashuvning ilmiy asosi sifatida dunyo va milliy pedagogik tajribalar o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda, interfaol metodlarning o'quvchilarning bilish jarayoniga ta'siri, ularni qo'llashning afzalliklari va istiqbollari haqida ilmiy-nazariy asoslar yoritiladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan farovon zamonda ta'limni tubdan isloh qilish farzandlarimizni puhta bilim asoslari bilan qurollantirish va uzlucksiz ta'limni amalga oshirish masalasiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Bu o'z navbatida o'qituvchilik kasbi bilan shug`ullanadigan har bir fan mustaxassisligi negizida ham katta talablar qo`ydi. Ular o'z fanining asoslarini mukammal o'rganish bilan bir qatorda o'zining pedagogik mahorati oshirib berilishi talab etiladi. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deya javob qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiyning o`zi ana shunday bilimga ega bo`lishi kerak.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, ta'lim to`grisidagi qonunni amalga oshirish, yosh avlodni ongiga milliy istiqlol g`oyasini chuqur singdirish, bиринчи navbata o'qituvchining faoliyatiga uninh ijobiy nufuziga va pedagogi mahoratiga bog`liq. Buni amalga oshirish eng avvalo hozirgi kunda ta'lim olayotgan.⁷⁸

ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODOLOGIYA

Ilgari olim va mutafakkirlarimiz ham o'zlarining asarlari bilan ta'lim samaradorligini oshirish uchun o'zlarining babaho xissalarini qo'shganlar. Interfaol ta'lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bu borada ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Quyida interfaol ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini yoritgan yetakchi olimlarning ilmiy ishlari haqida tahlil qilinadi. L.S. Vygotsky ijtimoiy o'rganish nazariyasini tadqiq etgan. Asosiy asarlari "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes" (1978), "Thought and Language" (1934). Vygotskiyning ijtimoiy o'rganish nazariyasi interfaol ta'limning asosiy negizini tashkil etadi. U ta'lim jarayonida "yaqin rivojlanish zonasasi" (ZPD) tushunchasini ilgari surib, o'quvchilar o'zlarini mustaqil

⁷⁸ Namozova D.T. Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompitentligi va kreativligi. O'quv darslik. Farg`ona-2022.20-bet

bajara olmaydigan vazifalarni boshqalar bilan hamkorlikda o'rganishi mumkinligini ta'kidlaydi. Interfaol ta'lismetodlari ham aynan shu tamoyilga asoslanadi, chunki bunda talabalarga hamkorlik, muloqot va muammolarni birgalikda hal qilish orqali o'rganish imkoniyati beriladi. Talabalar uchun qiyin va murakkab bo'lgan tushunchalarni, ilmni, bilimni, zamonaviy tarzda oson va qiziqarli o`rganish imkoniyatini beradi.

J. Dewey esa tajribaga asoslangan o'qitishni tadqiq etgan, ilm-fangga olib chiqqan. Asosiy asarlari "Democracy and Education" (1916), "Experience and Education" (1938). Dewey ta'lismi tajriba bilan bog'lash zarurligini ilgari surgan. Uning fikricha, o'qitish jarayoni o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularga yechim topish orqali amalga oshirilishi kerak. Interfaol metodlar, ayniqsa, "muammoli ta'lism" va "loyiha metodi" kabi yondashuvlar Dewey g'oyalariga asoslanadi. J. Piaget Kognitiv rivojlanish nazariyasi ustida tadqiqotlar olib borgan. Piaget o'quvchilarning bilimni faol o'zlashtirishi uchun muhit va shart-sharoit muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bolalar bilimlarni tajribalar va interaktiv faoliyat orqali o'zlashtiradilar. Interfaol ta'lismning asosiy metodlari muammoli ta'lism, rolli o'yinlar va muhokama metodlari Piaget g'oyalariga tayanadi.⁷⁹

Interfaol metod tushunchasi – bu o'qitish jarayonida o'quvchi (yoki talabalar) va o'qituvchi o'rtasida faol muloqotga asoslangan, bilimlarni faqat tayyor holda berish emas, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga, o'z fikrini asoslashga va amaliy faoliyatga jalb etishga yo'naltirilgan o'quv metodlaridir.

Interfaol metodlarning asosiy xususiyatlari:

- Faollik – o'quvchilar darsda passiv emas, faol ishtirok etadilar;
- Hamkorlik – guruhlarda ishslash, o'zaro fikr almashish orqali o'rganish amalga oshiriladi;
- Muammoli yondashuv – savol va muammolar orqali bilimlarni mustaqil izlab topish;
- Amaliyotga yo'naltirilganlik – nazariy bilimlar real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladi.

Mashhur interfaol metodlarga quyidagilar kiradi:

- "Aqliy hujum" (brainstorming),
- "Blits-so'rov",
- "Insert" texnologiyasi,
- "Sinkveyn" (besh satrli she'r),
- "Rol o'yinash" (rolli o'yinlar),
- "Fishbone" (muammo tahlili),

⁷⁹ Ibotova D. Sh. Interfaol metod tushnchasi va uning pedagogik asoslari. Maqola. 2-bet

-
- Klaster usuli va boshqalar.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning bilimlarni mustaqil egallashiga yo‘naltirilgan metod hamda vositalardan foydalanishni talab etadi. An’anaviy ta’lim yondashuvlaridan farqli o‘larоq, interfaol metodlar pedagogik jarayonda o‘quvchilarning fikrlash, muammolarni hal qilish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga va kangayishiga juda katta yordam beradi. Interfaol metodlar – bu pedagogik jarayonda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi yondashuv bo‘lib, unda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro fikr almashadi, birgalikda bilimlar yaratadi.

Interfaol vositalar va ularning o‘rnii Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash samaradorligini oshirish uchun turli texnologik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bularga quyidagilar kiradi:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – kompyuter, proyektor, interfaol doskalar orqali darslarni vizuallashtirish.
- Elektron ta’lim platformalari – Moodle, Google Classroom, Coursera kabi tizimlar orqali masofaviy ta’limni tashkil etish.
- Simulyatsiya va virtual laboratoriylar – tabiiy fanlar va muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.
- Mobil ilovalar va onlayn test tizimlari – Quizizz, Kahoot, Mentimeter kabi vositalar orqali bilimlarni baholash va interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Interfaol metodlardan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

1. O‘quvchilarning faolligi oshadi – ular bilim olish jarayonida passiv emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.
2. Mustaqil fikrlash rivojlanadi – muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini shakllantirish va asoslash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.
3. Jamoada ishslash qobiliyati kuchayadi – guruh ishlarida ishtirok etish orqali o‘quvchilar hamkorlik qilishni o‘rganadilar.
4. Yangi bilimlarni eslab qolish samaradorligi oshadi – interfaol metodlar orqali olinadigan bilimlar uzoq muddatga yodda qoladi.
5. Texnologik savodxonlik rivojlanadi – zamonaviy ta’lim vositalari bilan ishslash malakalari shakllanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Interfaol metodning nazariy asoslari — bu metodlarning ilmiy, pedagogik va psixologik asoslarini, ularning shakllanishiga ta’sir qilgan konsepsiyalarni anglatadi. Quyida interfaol metodlarning asosiy nazariy poydevorlari keltiriladi:

1. Konstruktivizm nazariyasi

Vakillari: J. Piaget, L.S. Vygotskiy, J. Bruner.

Bu nazariyaga ko‘ra, bilimlar tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol ravishda quriladi (ya’ni "konstruksiya qilinadi"). O‘quvchi yangi bilimlarni avvalgi tajribasi va bilimlari bilan bog‘laydi. Interfaol metodlar o‘quvchini mustaqil izlanishga, muloqotga va tajriba orttirishga undaydi.

2. Sotsial-konstruktivistik yondashuv

Asoschisi: L.S. Vygotskiy. Ta’lim jarayoni ijtimoiy muloqot orqali amalgalashadi.

"Yaqin rivojlanish zonasasi" tushunchasi asosida o‘quvchi murakkab vazifalarni boshqalar yordamida o‘zlashtiradi. Interfaol metodlarda guruhlarda ishlash, juftlikda fikr almashish aynan shu yondashuvga asoslanadi.

3. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv

Vakillari: A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn. O‘quvchi bilimni amaliy faoliyat orqali egallaydi. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar darsda faol ishtiroy etib, tajriba asosida bilimlarni o‘zlashtiradilar.

4. Kooperativ o‘qitish nazariyasi

Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilar bir-biriga o‘rgatish va hamkorlik orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradilar. Interfaol metodlarda "guruhi ish", "o‘zaro intervyyu", "akvarium", "rol o‘ynash" kabi usullar aynan shu nazariyaga asoslanadi.

5. Humanistik pedagogika

Vakillari: J. Dewey, K. Rogers, A. Maslow. O‘quvchining shaxs sifatidagi o‘sishi, erkin fikrashi va o‘z qobiliyatini namoyon etishi muhim. Interfaol metodlar o‘quvchilarning fikrini hurmat qilish, ularni dars jarayoniga jalb etish orqali humanistik yondashuvni amalgalashiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kundan – kun, zamon , ta’lim , ta’lim sifati rivojlangani sayin, interfaol o‘qitish metodlari zamonaliv pedagogikaning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularning nazariy asoslari konstruktivizm, sotsial-konstruktivizm, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, kooperativ ta’lim va humanistik pedagogika kabi ilmiy maktablarga tayanadi. Bu yondashuvlarning barchasi o‘quvchini markazga qo‘yish, uning shaxsiy faolligi, mustaqil fikrashi, ijtimoiy muloqotga kirishishi va amaliy faoliyatda qatnashishini ta’minlaydi. Interfaol metodlar orqali ta’lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham,

zamonaviy ta'limda bu metodlarning ahamiyati ortib bormoqda va ular kelajakda yanada keng qo'llanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бахобова З.Х., Сайдова Н.М. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. Rasulova D.X. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti”, 2019.
3. Hasanboeva O., Tojiboyeva N. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
5. Dewey J. Demokratiya va ta’lim. – New York: Macmillan, 1916.
6. Piaget J. Child's Conception of the World. – London: Routledge, 1929.
7. Rogers C.R. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill Publishing Company, 1969.
8. Leontyev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Nauka, 1977.
9. Ўзбекистон Республикаси “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2017.